



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)


2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 558 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech..... 184 Turumbetova Aygul Yusupbaevna	184
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi 189 Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	189
	Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish 191 Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	191
	Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi..... 195 Ermatova Robiya Bekjonali qizi	195
	The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education 199 Ismailova Shaira Ferdausovna	199
	Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners 204 Maqsudova Gulnoz Olimovna	204
	Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms 208 Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	208
	Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching 212 Sharipova Muhabbat Erkinovna	212
	Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili..... 216 Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	216
	Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv 222 Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	222
	O'qituvchilarning qadriyatlarini va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili 227 Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	227
	Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida 229 Safarova Madina Azamat qizi	229
	Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности..... 233 Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	233
	Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века 239 Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Ғолиб	239
	Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана 242 Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	242
	Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining asosiy shakllari 245 Abdukarimov Nurmaxan Amirxanovich	245
	Orol bobo obrazi orqali inson va tabiat birligining talqini 249 Hayotova Diyora Hamid qizi	249
	Yosh taekvondochilarda (10–12 yoshli) kuch, tezkorlik va ephillik sifatlarini takomillashtirish metodikasi .. 254 Iminova Z. B., Nazarova M. A.	254
	Oliy ta'lim muassasasi kafedra mudirlarida liderlik xususiyatini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar 258 Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna	258
	Mediafalsafaning oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari va pedagogik funksiyalari 265 Mirabdullayev Izzatillo Isroiljon o'g'li	265
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti kun tartibini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachining roli..... 271 Muminova Gulasal Baxodirovna	271
	Soft Skills yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish 275 Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	275
	Tasviriy faoliyat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish .. 280 Sadirova Kamola Giyozovna	280



Inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus pedagogik metodlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash.....	284
<i>Suyunova Kamola Jamshed qizi, Suvonova Kamola Rayimkulovna</i>	
Web-dizayn texnologiyalari asosida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining raqamli kompetentligini shakllantirish metodikasi	287
<i>Ulmasbek Abdubanapovich Yuldashev, Prof. Dr. Ayhan Istanbulu</i>	
O'smirlar axloqiy rivojlanishining psixologik determinantlari va ularni takomillashtirish mexanizmlari	293
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Oliy ta'limda o'zbek tili fanini o'qitish: muammo va yechimlar	297
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Folklor motivlarining bolalar xarakteri shakllanishidagi o'rni.....	300
<i>Safarova Nigora Oxunjonovna, Sayfilloyeva Jasmina Jahongirovna</i>	
Kreativ pedagogga qo'yiladigan talablar va uni shakllantirish bosqichlari	304
<i>Abdialimova Maxfuza Safarboy qizi</i>	
Biologiya darslarida STEM va biotexnologiya integratsiyasining nazariy poydevori	307
<i>Abdusamatov Abduqodir Norqul o'g'li</i>	
The Effectiveness of Project-Based Learning in Developing 21 st -Century Skills Among EFL Learners	314
<i>Axmatova Munisa Orif qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning o'yin faoliyati asosida ijtimoiylashuvi.....	320
<i>P. M. Pulatova, El'muradova Madina Yangiboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini xalq og'zaki ijodi asosidagi didaktik o'yinlar orqali rivojlantirishning lingvopsixologik va tarbiyaviy mexanizmlari	326
<i>Muqimova Gullola Qobil qizi, Sultonov Humoyun Ulug'murodovich</i>	
Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning metodologik asoslari	330
<i>Nurkeldi Jarasbayev</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining informatika ta'limidagi o'rni va ahamiyati	334
<i>Abdullayev Abubakir Narzullayevich, Xurozboyeva Sevinch Abror qizi</i>	
Научно-методологические основы организации психопрофилактической и психокоррекционной работы в практической психологии	337
<i>Ядгарова Озода Ибрагимовна</i>	
Raqamli ta'lim muhitida birlamchi manbalar bilan ishlashning sun'iy intellektga asoslangan pedagogik-metodik mexanizmlari	342
<i>Yursinboyev Jaxongir Mexrojiddin o'g'li</i>	
Zamonaviy biologiyada umumiy genetikaning o'rni va istiqbollari	348
<i>Ko'bayev Jurabek Eshmamatovich</i>	
Разработка системы мониторинга информационной безопасности для высших учебных заведений... ..	352
<i>Хамроев Шохбоз Султонмуродович</i>	
Klaster metodi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnli masala yechish ko'nikmasini rivojlantirish ..	356
<i>Atoeva Laylo Akram qizi</i>	
Ta'lim subyekti sifatida o'qituvchi va sun'iy intellektning psixologik-pedagogik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish	363
<i>Mirзахmatova Sayyora Saydaxmatovna</i>	
Research Methodologies for Examining English Texts Focused on Ecotourism Destinations	366
<i>Nurbek Yavqochev</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy rivojlanishida bolalar adabiyotining o'rni.....	369
<i>Yuldoshova Mexriniso</i>	
Integrativ yondashuvning logopedik mashg'ulotlar orqali dizartriyaning korreksiyalashdagi ahamiyati	372
<i>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi	378
<i>Axmedjanov Shuhrat Boltayevich</i>	
Og'zaki nutqni baholash va rivojlantirish omillari va nutqiy vaziyatlar	381
<i>G'aybulloyeva Feruza Bobir qizi</i>	
Hayotiy vaziyatlar asosida matematik tasavvurlarni shakllantirish	384
<i>Raimberdiyeva Sh. N., Ismoilova M. M.</i>	

The Role of Word Formation Processes in Enriching the Vocabulary of the English Language	387
<i>Qoldigiz Mirzayeva</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishini psixodiagnostika qilishning nazariy va amaliy asoslari	391
<i>Radjabova Dilnura Anvarbekovna</i>	
Maktabga tayyorlov yoshida aqliy tarbiyalashda didaktik o'yinlarning o'rni va ahamiyati.....	397
<i>Ziyodullayeva Ruxshona O'ral qizi, Ismoilov Bobur Tohirovich</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlash va axborotni saralash kompetensiyasini rivojlantirishning neyropedagogik mexanizmlari.....	401
<i>Xolmatova Saboxat Ilxomjon kizi</i>	
Akmeologik yondashuv asosida talabalarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishni takomillashtirish ...	408
<i>Xoshimova Muazzamxon Zaynalobidinovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining dirijyorlik apparatini shakllantirishda qo'llaniladigan interfaol metodlarning ahamiyati.....	413
<i>Z. A. Nuraliyeva</i>	
3-sinf ona tili darsligidagi birikuvchanlikka doir mashqlar tahlili.....	417
<i>Safarov Firuz Sulaymonovich, Hamroyeva Zahro G'afforovna</i>	
Лингво-дидактические требования к организации дистанционного обучения иностранному языку: цифровизация, инклюзия и мировой опыт	420
<i>Азимова Ситора Рахимовна</i>	
Развитие альтруистической самоотверженности у подростков на основе прогрессии навыков позитивного мышления	429
<i>Ахрарова Шоира Батыровна</i>	
“Лишний человек” и трагическое осознание своей ненужности	433
<i>Мустафоева Холида Худжагелдиевна</i>	
Talaba-psixologning kasbiy muhim sifatlarini takomillashtirish amaliy ishga tayyorlik omili sifatida	438
<i>Nurimbetova Elmira Jumamuratovna</i>	
Texnologiya faniga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari	441
<i>Abdufatayev Sherjaxon Abduazimovich, Yaminova Nargiza Nuriddinovna</i>	
Alisher Navoiy ijodiy merosida ustoz-shogird munosabatlarining aksiologik asoslari	444
<i>Abdullayeva Sabohat G'ayratullayevna</i>	
The Role of Artificial Intelligence in Enhancing English Language Teaching and Learning	448
<i>Asamatdinov Alim Baxtiyarovich, Ochilova Dilfuza Nematovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida monologik nutqni shakllantirishda savod o'rgatish, matn bilan ishlash va audiovizual vositalarning ahamiyati	451
<i>Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, Axmadjonova Dilroz Abdulaxad qizi</i>	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarda korrupsiyaga nisbatan intolerant madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.....	456
<i>Axmedova Dilnora Kobiljonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida steam texnologiyasidan foydalanishning amaliy asoslari.....	460
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	
Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi.....	464
<i>Bozorova Nigora Sodikjon qizi</i>	
Kontekstli yondashuv orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lisoniy-pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	467
<i>Eshoqulova Kamola Ibroximovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar muloqot ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari	471
<i>Isoqjonova Dilfuzaxon Muxtorjon qizi</i>	
Talabalik davrida o'quv faoliyatidan qoniqqanlik va lokus nazorat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	474
<i>Jo'rayeva Iqbolxon Po'latovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yo'l harakati xavfsizligi kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi	479
<i>Jumayev Yunus Rashidovich</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yo'l harakati xavfsizligi kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi	479
Jumayev Yunus Rashidovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar bilimini onlayn monitoring qilish tizimi	483
Delov To'Iqin Erkinovich, Doniyeva Fazilat Abdushukurovna	
Jadid ma'rifatparvarlarining o'quvchilarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishga doir pedagogik qarashlari	487
Ismatillayeva Mahliyo Muzaffar qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari nutq madaniyatini shakllantirishning an'anaviy va innovasion texnologiyalari	490
Nasriddinova Nasiba Alimjonovna	
Rauf Parfi she'riyatini o'qitishda keyslardan foydalanish.....	494
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Maktab o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya pedagogikasining o'rni	501
Normaxmatov Ilhom Zayniddinovich	
WKF karatechilarida musobaqaoldi stressini boshqarishda motivatsiya va o'zini nazorat qilish ko'nikmalarining ahamiyati	505
Novikova Angelina Veniaminovna, Kamolova Nilufar Davir qizi	
Ingliz tili ta'limida frazeologik birliklarni o'rgatishning lingvodidaktik asoslari.....	510
O'rinova Dildora Bekmahmatovna	
Pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi	519
Raxmonov Baxtiyor Azzamovich	
3-4-sinf tabiiy fan darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	523
Rustamova Nilufar	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv jarayoniga moslashuvining psixologik xususiyatlari	528
Uzakbayeva Venera Abatbayevna	
Distant oila farzandlarining psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillar	531
Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi	
Музыкальные стили как средство развития эмпатии и социальной ответственности учащихся в образовательном процессе.....	537
Ахунова Умида Ойбековна	
Современные тенденции развития французского языка в условиях глобализации.....	541
Давронова Зульфия Бобоевна	
Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy ingliz tilida neologizmlarning manbai sifatida	547
Tursunxo'jayeva Shirin Farhod qizi	
Педагогические возможности STEAM-технологий в развитии детей дошкольного возраста.....	551
Тошматова Мукаррам Джумановна	
Национальный характер в изображении русскоязычных писателей Узбекистана	554
Чернова Татьяна Алексеевна, Эшонкулов Бектош, Махаматсодиқов Билолиддин	



PEDAGOGLARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Raxmonov Baxtiyor Azzamovich

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni
qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Samarqand filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari yoritiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi faqat fan mazmunini bilish bilan cheklanmay, raqamli muhitda dars loyihalash, interaktiv resurslardan foydalanish, o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish va individual yondashuvni tashkil eta olish bilan ham belgilanadi. Maqolada TPACK, DigCompEdu va UNESCO ICT CFT kabi xalqaro yondashuvlar asosida pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, malaka oshirish kurslarida masofaviy ta'lim platformalari, elektron portfoliolar, raqamli baholash vositalari, sun'iy intellektga asoslangan yordamchi dasturlar va hamkorlik texnologiyalaridan foydalanish metodikasi taklif etiladi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar pedagogning ijodkorligi, refleksiv fikrlashi va kasbiy o'sishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: pedagog, kasbiy mahorat, raqamli texnologiya, raqamli kompetensiya, malaka oshirish, TPACK, elektron ta'lim, metodika.

Abstract: This article highlights the methodological foundations of utilizing digital technologies in the process of enhancing pedagogical skills. In the modern education system, a teacher's professional competence is defined not only by their knowledge of subject content but also by their ability to design lessons in a digital environment, utilize interactive resources, analyze student performance, and organize an individual approach. The article analyzes the stages of developing teachers' digital competence based on international frameworks such as TPACK, DigCompEdu, and UNESCO ICT CFT. Furthermore, it proposes methodologies for utilizing distance learning platforms, e-portfolios, digital assessment tools, AI-based assistant programs, and collaborative technologies within professional development courses. The study evaluates digital technologies as an essential factor that contributes to the educator's creativity, reflective thinking, and professional growth.

Key words: educator, professional skill, digital technology, digital competence, professional development, TPACK, e-learning, methodology.

Аннотация: В данной статье освещаются методологические основы использования цифровых технологий в процессе повышения профессионального мастерства педагогов. В современной системе образования профессиональная компетентность учителя определяется не только знанием содержания предмета, но и умением проектировать уроки в цифровой среде, использовать интерактивные ресурсы, анализировать деятельность учащихся и организовывать индивидуальный подход. В статье анализируются этапы развития цифровой компетентности педагогов на основе таких международных подходов, как TPACK, DigCompEdu и UNESCO ICT CFT. Также предлагается методика использования платформ дистанционного обучения, электронных портфолио, инструментов цифрового оценивания, вспомогательных программ на базе искусственного интеллекта и технологий сотрудничества в рамках курсов повышения квалификации. В исследовании цифровые технологии оцениваются как важный фактор, способствующий развитию креативности, рефлексивного мышления и профессионального роста педагога.

Ключевые слова: педагог, профессиональное мастерство, цифровая технология, цифровая компетентность, повышение квалификации, TPACK, электронное обучение, методика.

KIRISH

XXI asr ta'lim tizimida pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar tubdan o'zgarimoqda. Avvallari o'qituvchi asosan bilim manbai va nazoratchi sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda u o'quv jarayonini loyihalovchi, raqamli muhitda muloqot qiluvchi, axborot oqimini saralay oluvchi, o'quvchining individual ehtiyojlarini tahlil qiluvchi va innovatsion yechimlar ishlab chiqadigan mutaxassis sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa peda-

goglarning kasbiy mahoratini oshirish tizimida raqamli texnologiyalardan maqsadli, metodik jihatdan asoslangan holda foydalanishni zaruratga aylantiradi.

Raqamli texnologiyalarni ta'limga tatbiq etish faqat kompyuter, proyektor yoki internetdan foydalanish degani emas. Uning mazmuni ancha keng: raqamli resurs yaratish, virtual ta'lim muhitini boshqarish, o'quvchilarning bilimini onlayn baholash, elektron portfoliolarni yuritish, sun'iy intellekt yordamida ta'lim natijalarini tahlil qilish, adaptiv topshiriqlar berish va o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini doimiy takomillashtirib borishini o'z ichiga oladi.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan ICT Competency Framework for Teachers modeli ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'qituvchilar tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida ko'rsatadi.

Pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini ishlab chiqishda uchta asosiy jihat muhim:

- *birinchidan*, texnologiya o'qituvchi faoliyatini yengillashtirishi kerak;
- *ikkinchidan*, u ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi lozim;
- *uchinchidan*, pedagog texnologiyadan maqsad emas, balki ta'limiy natijaga erishish vositasi sifatida foydalanishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, maqolaning maqsadi pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samarali metodik yo'llarini ilmiy asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy mahorat pedagogning bilim, ko'nikma, tajriba, metodik madaniyat, kommunikativ qobiliyat, ijodkorlik va refleksiv fikrlashining yaxlit tizimidir. Raqamli ta'lim sharoitida bu tushuncha yanada kengayadi. Endilikda pedagog nafaqat mavzuni tushuntira olishi, balki uni elektron resurs, video, interaktiv topshiriq, onlayn test, virtual muhokama va raqamli loyiha shaklida taqdim eta olishi ham kerak.

Mishra va Koehler tomonidan ilgari surilgan TPACK modeli pedagog kasbiy mahoratini texnologik, pedagogik va predmetga oid bilimlar uyg'unligida tushuntiradi. Mazkur yondashuvga ko'ra, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun o'qituvchi faqat texnik vositani bilishi yetarli emas; u texnologiyani aynan qaysi mavzu, qaysi pedagogik vazifa va qaysi o'quvchi ehtiyoji uchun tanlayotganini ham anglab yetishi zarur ^[1, 1025-b.]. Ushbu model zamonaviy malaka oshirish jarayonida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, matematika o'qituvchisi grafik funksiyalarni oddiy doskada tushuntirishi mumkin. Ammo GeoGebra, Desmos yoki boshqa interaktiv platformalar yordamida o'quvchi funksiyaning o'zgarishini real vaqt rejimida ko'radi, parametrlarni almashtiradi, sabab-oqibat bog'liqligini kuzatadi. Bunda raqamli texnologiya darsni bezovchi qo'shimcha emas, balki tushunishni chuqurlashtiruvchi metodik vosita bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish bir martalik seminar yoki qisqa trening bilan yakunlanadigan jarayon emas. U bosqichma-bosqich shakllanadi. Birinchi bosqichda pedagog texnik savodxonlikni egallaydi: kompyuter, internet, elektron pochta, taqdimot dasturlari, bulutli xotira va onlayn platformalardan foydalanishni o'rganadi. Ikkinchi bosqichda u raqamli vositalarni dars jarayoniga moslashtiradi. Uchinchi bosqichda esa pedagog raqamli texnologiyalar yordamida o'zining metodik tizimini yangilaydi, interaktiv dars modellarini yaratadi, o'quvchilar faoliyatini tahlil qiladi va shaxsiy kasbiy rivojlanish rejasini ishlab chiqadi.

DigCompEdu modeli pedagoglarning raqamli kompetensiyasini kasbiy faoliyat, raqamli resurslar, ta'lim va o'qitish, baholash, o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish kabi yo'nalishlar asosida baholaydi. Ushbu model pedagoglar uchun raqamli kompetensiya nima ekanini ilmiy asoslangan tarzda tavsiflaydi.

Demak, malaka oshirish kurslarida faqat texnik ko'nikmalar emas, balki dars mazmuni, baholash, kommunikatsiya va refleksiya bilan bog'liq raqamli amaliyotlar ham o'rgatilishi kerak. Shu bois pedagoglarni o'qitishda "avval texnologiya, keyin metodika" tamoyili emas, "avval pedagogik maqsad, keyin mos texnologiya" tamoyili ustuvor bo'lishi lozim. Masalan, darsda o'quvchilarning fikrini tezkor aniqlash maqsadi qo'yilsa, Mentimeter, Kahoot yoki Google Forms kabi vositalar tanlanadi. Mustaqil izlanish va loyiha faoliyati tashkil etilsa, Padlet, Google Classroom, Moodle yoki Microsoft Teams kabi platformalar samaraliroq bo'ladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan raqamli metodika bir nechta tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerak.

Birinchi tarkibiy qism – diagnostika. Kurs boshlanishidan oldin pedagoglarning raqamli savodxonlik darajasi, texnologiyadan foydalanish tajribasi, ehtiyojlari va muammolari aniqlanadi. Bunda onlayn so'rovnoma, test, suhbat, o'zini o'zi baholash varaqasi va elektron portfolio tahlilidan foydalanish mumkin.

Ikkinchi tarkibiy qism - modulli o'qitish. Malaka oshirish dasturi yirik nazariy ma'ruzalar bilan emas, kichik, amaliy va natijaga yo'naltirilgan modullar asosida tashkil etilishi lozim. Masalan, "Elektron dars ishlanmasi yaratish", "Onlayn baholash vositalari", "Video dars tayyorlash", "Sun'iy intellektdan metodik yordamchi sifatida foydalanish", "O'quvchilar bilan raqamli muloqot", "Elektron portfolio yuritish" kabi modullar pedagog uchun aniq ko'nikma beradi.

Uchinchi tarkibiy qism - amaliy topshiriqlar. Har bir pedagog o'z fani bo'yicha raqamli dars loyihasi, interaktiv topshiriq, baholash mezonlari yoki elektron resurs yaratishi kerak. Shunda malaka oshirish kursi nazariy bilim berish bilan cheklanmaydi, balki pedagogning real ish faoliyatiga bog'lanadi. Masalan, ona tili o'qituvchisi matn tahlili uchun Google Forms asosida test tuzadi, tarix o'qituvchisi Padletda tarixiy voqealar xaritasini yaratadi, biologiya o'qituvchisi virtual laboratoriya asosida tajriba ssenariysini ishlab chiqadi.

To'rtinchi tarkibiy qism - hamkorlikda o'rganish. Raqamli texnologiyalar pedagoglarni yakka tartibda emas, kasbiy hamjamiyatda rivojlantirish imkonini beradi. Telegram guruhlari, Google Classroom, Moodle forumlari, Zoom seminarlar, vebinarlar va bulutli hujjatlar orqali o'qituvchilar bir-birining ishlanmalarini ko'rib chiqadi, fikr bildiradi, tajriba almashadi. OECD TALIS tadqiqotlarida ham o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi, hamkorlik va kasbiy o'rganish muhitining ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Beshinchi tarkibiy qism - refleksiya va baholash. Pedagog o'z faoliyatini tahlil qilmasa, texnologiya tashqi bezak sifatida qolib ketishi mumkin. Shuning uchun har bir modul yakunida "Men nimani o'rgandim?", "Bu vosita darsimga qanday foyda beradi?", "O'quvchilar uchun qanday qulaylik yaratadi?", "Qaysi qiyinchiliklar bor?" kabi savollar asosida reflektiv tahlil o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Raqamli vositalarning pedagogik imkoniyatlari

Raqamli texnologiyalar pedagog kasbiy mahoratini bir necha yo'nalishda rivojlantiradi.

Birinchiidan, ular o'qituvchining metodik repertuarini boyitadi. An'anaviy tushuntirish, savol-javob va yozma mashqlardan tashqari, videodars, podkast, infografika, virtual laboratoriya, elektron test, interaktiv xarita, onlayn munozara kabi usullarni qo'llash imkoniyati paydo bo'ladi.

Ikkinchiidan, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini individuallashtirishga yordam beradi. O'quvchilarning bilim darajasi, ishlash tezligi va qiziqishlari turlicha bo'ladi. Raqamli platformalar orqali ularga turli darajadagi topshiriqlar berish, natijalarni kuzatish, xatolarni aniqlash va qo'shimcha materiallar tavsiya etish mumkin. Bu esa pedagogning diagnostik va tahliliy kompetensiyasini kuchaytiradi.

Uchinchiidan, raqamli texnologiyalar baholash madaniyatini o'zgartiradi. An'anaviy baholash ko'pincha yakuniy natijani aniqlashga qaratilgan bo'lsa, raqamli vositalar jarayon davomida tezkor teskari aloqa berishga imkon yaratadi. Google Forms, Quizizz, Socrative, Moodle testlari orqali o'qituvchi o'quvchilarning javoblarini darhol ko'radi, umumiy xatolarni aniqlaydi va keyingi darsni shu asosda rejalashtiradi.

To'rtinchiidan, raqamli texnologiyalar pedagogning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi. O'qituvchi tayyor resurslardan foydalanish bilan birga, o'zining mualliflik materiallarini yaratadi. Bu jarayonda u dizayn, matn, ovoz, video, animatsiya va metodik topshiriqlarni uyg'unlashtiradi. Natijada pedagog oddiy bilim beruvchi emas, balki ta'lim kontenti yaratuvchisiga aylanadi.

Sun'iy intellekt va pedagog kasbiy rivojlanishi

So'nggi yillarda sun'iy intellekt vositalari ta'lim jarayoniga faol kirib kelmoqda. Ular pedagogga dars rejasi tuzish, savollar yaratish, matnni soddalashtirish, baholash mezonlarini ishlab chiqish, taqdimot g'oyalarini shakllantirish va o'quvchilar uchun differensial topshiriqlar tayyorlashda yordam beradi. Biroq sun'iy intellekt pedagog o'rnini bosuvchi vosita emas, balki uning kasbiy tafakkurini qo'llab-quvvatlovchi yordamchi sifatida qaralishi kerak. Bu jarayonda metodik ehtiyotkorlik zarur. Pedagog sun'iy intellekt bergan javobni tayyor haqiqat sifatida qabul qilmasligi, uni tahlil qilishi, o'z fani, o'quvchilar yoshi, milliy ta'lim dasturi va tarbiyaviy maqsadlar

bilan moslashtirishi lozim. Aks holda, raqamli vosita pedagogik mas'uliyatni susaytirishi mumkin. Shuning uchun malaka oshirish kurslarida sun'iy intellektdan foydalanish etikasi, akademik halollik, mualliflik huquqi va axborot xavfsizligi alohida mavzu sifatida o'qitilishi kerak.

Pedagoglarning raqamli texnologiyalardan foydalanishida bir qator muammolar mavjud. Birinchisi - texnik infratuzilma bilan bog'liq muammo. Ayrim ta'lim muassasalarida internet sifati, kompyuterlar soni yoki texnik xizmat ko'rsatish yetarli bo'lmashligi mumkin. Ikkinchisi - pedagoglarning raqamli vositalardan foydalanish darajasi turlicha ekani. Ba'zi o'qituvchilar ilg'or platformalardan erkin foydalansa, ayrimlari oddiy elektron hujjat yoki onlayn test yaratishda ham qiynaladi. Uchinchisi - metodik yondashuvning yetishmasligi. Ba'zan raqamli texnologiya darsga maqsadsiz qo'shiladi: slayd ko'rsatish yoki video qo'yish darsni avtomatik ravishda innovatsion qilib qo'ymaydi. Innovatsiya texnologiyaning mavjudligida emas, balki uning pedagogik vazifa bilan uyg'unligidir.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun bir necha choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Avvalo, malaka oshirish kurslarida pedagoglar boshlang'ich, o'rta va ilg'or darajalarga ajratilib o'qitilishi kerak.

Ikkinchidan, har bir o'qituvchi o'z fani bo'yicha amaliy mahsulot yaratishi va uni himoya qilishi lozim.

Uchinchidan, ta'lim muassasalarida "raqamli mentor" tizimini joriy etish foydali bo'ladi. Bunda tajribali pedagoglar boshqa o'qituvchilarga amaliy yordam beradi.

To'rtinchidan, o'qituvchilarning raqamli portfoliolarini yuritish orqali ularning kasbiy o'sishini kuzatish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar o'qituvchining metodik imkoniyatlarini kengaytiradi, darslarni interaktiv tashkil etishga yordam beradi, o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish va individual yondashuvni kuchaytiradi. Biroq texnologiyadan samarali foydalanish uchun pedagogda faqat texnik ko'nikma emas, balki metodik tafakkur, tanqidiy yondashuv, refleksiya va pedagogik mas'uliyat ham shakllangan bo'lishi zarur.

Maqolada tahlil qilinganidek, raqamli texnologiyalarni malaka oshirish jarayoniga tatbiq etishda diagnostika, modulli o'qitish, amaliy topshiriqlar, hamkorlikda o'rganish, elektron portfolio va refleksiv baholash muhim metodik shartlar hisoblanadi. TPACK, DigCompEdu va UNESCO ICT CFT kabi xalqaro yondashuvlar pedagoglarning raqamli kompetensiyasini tizimli rivojlantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Eng muhimi, raqamli texnologiya pedagogik maqsadga bo'ysundirilgan taqdiridagina ta'lim sifati va o'qituvchi kasbiy mahoratini oshirishga real ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, pedagoglarning kasbiy rivojlanishida raqamli texnologiyalarni qo'llash tasodifiy yoki epizodik jarayon bo'lmashligi kerak. U ta'lim muassasasi strategiyasi, malaka oshirish dasturlari, fan metodikasi va pedagogning shaxsiy rivojlanish rejasi bilan uzviy bog'langan bo'lishi lozim. Ana shunda raqamli texnologiyalar o'qituvchini zamonaviy ta'lim muhitining faol, ijodkor va raqobatbardosh subyektiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. Vol. 108, No. 6. New York: Teachers College, Columbia University, 2006. - P. 1017-1054.
2. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. - 95 p.
3. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. Paris: UNESCO, 2018. - 68 p.
4. OECD. TALIS 2018 Results. Volume I: Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. Paris: OECD Publishing, 2019. - 220 p.
5. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London; New York: Routledge, 2009. - 392 p.
6. Darling-Hammond L., Hyster M. E., Gardner M. Effective Teacher Professional Development. Palo Alto, CA: Learning Policy Institute, 2017. - 76 p.
7. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. Vol. 2, No. 1. 2005. - P. 3-10.
8. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
9. Shulman L. S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher. Vol. 15, No. 2. Washington, DC: American Educational Research Association, 1986. - P. 4-14.
10. Bates A. W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. 2nd ed. Vancouver: Tony Bates Associates Ltd., 2019. - 764 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.